project.gov.uz

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH VA KELISHISHNING YAGONA ELEKTRON TIZIMI

ID-11342 (V-2)

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT, RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO'MITASI

Rux va mis ishlab chiqarishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash haqidagi buyruqqa o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ-186-son “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 633-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa’rini geologik o‘rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2012-yil 19-dekabrdagi “Rux va mis ishlab chiqarishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash haqida” gi 245-son buyrug‘iga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda texnik hujjat deb topilgan, 2013-yil 21-yanvar, 6-24/23-14135/6-son) ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri, Sog‘liqni saqlash vaziri, Elektr energiyasi, neft mahsulotlariva gazdan foydalanishni nazoratqilish inspeksiyasi boshlig‘i, va O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Qo'mita raisi
09-Sentabr 2026-yil
17/mth-13 son

RAFIQOV ABDUVAQQOS VOHIDOVICH

Kelishildi:

Rais
22-Sentabr 2026-yil

RAFIKOV KUDRATULLA MIRSAGATOVICH

Vazir
21-Sentabr 2026-yil

ADILOV ELDAR ERKINOVICH

Vazir
17-Sentabr 2026-yil

ZAXIDOV BOTIR ERKINOVICH

Boshliq
15-Sentabr 2026-yil

ISOQJONOV AXADXON IKROMJONOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
sentyabrdagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi
qo‘mitasining 2026 yil “09” sentabrdagi
17/mth-13 son-son qaroriga
ILOVA

“Rux va mis ishlab chiqarishda xavfsizlik qoidalarini tasdiqlash haqida” gi buyruqqa kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. Qoidalarning muqaddimasi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktyabrdagi 633-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, rux va mis ishlab chiqarishda xavfsizlik talablarini belgilaydi.”.

2. 4-banddagi “Mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risidagi namunaviy nizomga (ro‘yxat raqami 273, 1996-yil 14-avgust)” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.12.2025-yildagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan “Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. 6-banddagi “GOST 12.0.004-90 “MXST. Mehnat xavfsizligiga o‘qitishni tashkil etish. Umumiy qoidalar” va Mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash to‘g‘risida namunaviy nizomga (ro‘yxat raqami 272, 1996-yil 14-avgust)” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.12.2025-yildagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risida”gi nizomga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4. 7-banddagi “Mehnatni muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizomga (ro‘yxat raqami 870, 2000 yil7 yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me’yoriy hujjatlari axborotnomasi 2000 y., 1-son)” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.12.2025-yildagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risida”gi nizomga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

5. 12-banddagi “SanQvaM 0046-96 “Ish hududi havosidagi zararli moddalarning CHYQK”ga” degan so‘zlar “SanQvaN 0294-11 “Ish joylari

havosidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan miqdori”ga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

6. 22-banddagi “Iste’molchilarning elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalariga (ro‘yxat raqami 1383, 9-iyul 2004-yil) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 27-son, 317-modda) muvofiq tashkilot bosh muhandisi tomonidan tasdiqlangan “Texnologik va elektr-texnik uskunalarning konstruktiv elementlari izolyatsiyasining qarshiligi” yillik jadval bo‘yicha” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.11.2020-yildagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari”ga muvofiq” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7. 32-banddagi “Iste’molchilarning elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari (ro‘yxat raqami 1383, 9 iyul 2004-yil) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 27-son, 317-modda) hamda Iste’molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari (ro‘yxat raqami 1400, 20-avgust 2004-yil) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 33-son, 379-modda)” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.11.2020-yildagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari” hamda “Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari” “Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari”” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

8. 34-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun’iy yoritish”” degan so‘zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish”” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

9. 95-banddagi “SanQvaM 0120-01 “Ish joylarida shovqinning yo‘l qo‘yilgan darajasining sanitariya me’yorlari”” degan so‘zlar “SanQvaN 0111-26 “Ish joylaridagi shovqin, tebranish, infratovush va ultratovush darajalariga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari”” degan so‘zlar bilan almashtirilsin. Mazkur banddagi “(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 28-maydagi 20-15-195/12-sonli xulosasiga asosan texnik hujjat deb topilgan)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

10. 206-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, “O‘zdavenergonazorat” inspeksiyasi va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” ochiq aksiyadorlik jamiyati” degan so‘zlar “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.